

AHMAD YUGNAKIYNING “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARIDA AXLOQIY-MA’RIFIY VA DINIY MASALALARNING YORITILISHI

Matrizayeva Sanobar Alimbayevna

Alfraganus universiteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Adib Ahmad Yugnakiyning ”Hibat ul-haqoyiq” asarida aks etgan axloqiy-ma’rifiy va diniy masalalar tadqiq qilingan bo‘lib, asarda bilim va ma’rifatga chorlovchi to‘rtliklar va ularning ijtimoiy qadriyatlarimizning shakllanishidagi o‘rni tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *tafsir, kalom, hadis, falsafiy qarashlar, pandnoma asar, diniy-ma’rifiy, axloqiy-didaktik qarashlar*

Kirish. Adib Ahmad Yugnakiyning pandnoma uslubida yozilgan asari ”Hibat ul-haqoyiq” o‘zida 245chida badiiy tafakkur va ma’naviy yetuk dunyoqarashning jamlaganligi va ma’naviyatimiz rivojida muhim o‘rin tutganligi bilan ham boshqa asarlardan alohidalik kasb etadi. Shuning bilan birgalikda ma’naviy-ijtimoiy qadriyatlar aks etgan asar hisoblanadi.

”Hibat ul-haqoyiq” 14 bob, 512 misradan iborat. Dostonning 1-bobi Allohga hamd, 2-bobi Muhammad (sav) na’ti va choryorlar ta’rifiga, 3-bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag‘ishlangan. 4-bobda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan. Dastlabki muqaddima va 4-bobdan so‘ng asosiy qismga o‘tiladi. 5-bob –ma’rifatning foydasi-yu jaholatning zarari, 6-bob – til odobi, 7-bob – dunyoning o‘tkinchiligi, 8-bob–saxiylik va baxillik, 9- va 10-boblar turli masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, 11-bob – kitobning xotimasi (asarning 1480-yil Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko‘chirilgan nusxasida 11-bob mavjud, 3-bob yo tushib qolgan, yo boshqalariga qo‘shilib ketgan).

O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan bu asarga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan.

Asosiy qism. Ahmad Yugnakiy haqida bugungi kunga qadar bir qancha manqaba (badiiy-tasavvuf adabiyotining manoqib janri) yetib kelgan. Ulardan biriga ko'ra, Ahmad Yugnakiy arab va fors tillarini mukammal bilgan, tafsir, kalom, hadis ilmlaridan chuqur boxabar, taqvodor olim bo'lgan. Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Yugnakiyning asli 246chida qavmlardan ekanligi va ko'zi tug'ma ojizligi, taqvodor va zehnli inson ekanligini, adibning Bag'dod tashqarisidagi bir manzilda yashaganligi va Imomi A'zam darslarida ishtirok etish uchun Bag'dodga qadar piyoda yo'l bosgani, ustozining tahsiniga sazovor bo'lganini qayd etadi.(1)

"Hibat ul-haqoyiq" XII asrda doston shaklida yozilgan bir axloq va odob kitobidir. "Hibat ul-haqoyiq" asari diniy va axloqiy tamoyillarning 246chida milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda ifodalangani bilan diqqatga sazovordir. Bir tarafda 246chida xalqlarning falsafiy qarashlarni o'zida jamlagan hikmatli so'zlar, boshqa tarafda esa islom ma'rifatini ifodalagan oyat va hadislar uyg'un holda keltiriladi. Natijada, asar mazmuniga ko'ra ham hikmatli so'zlar yig'indisi, pandnoma asar, ham diniy-ma'rifiy, axloqiy-didaktik qarashlar ifodalangan asar bo'ladi.

O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan bu asarga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan.

Ahmad Yugnakiyning ta'kidlashicha, insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ko'rsatuvchi muhim belgilaridan birinchisi til – odobi.

Allomaning fikricha, tilni tiymaslik, huda-behuda so'zlarni aytaverish boshga balo keltiradi. Shu bois u tilni tiyishni, har bir so'zni o'ylab so'zlashni maslahat beradi. Xususan, Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun, g'oli chiqsa bekta tishing siyur.

Ya'ni tilingni tiy, tishing sinmasin, agar (so'zlab yuborsang) tishing chiqib qolsa, tishingni sindiradi, deya behuda so'zlashning yomon oqibatlari xususida o'z qarashlarini ilgari suradi.

Fikrini davom ettirar ekan, Ahmad Yugnakiy quyidagilarni ham ta'kidlab o'tadi:

So'zung bo'shlug' esma yig'a tut tiling, Etar boshqa bir kun bu til bo'shlug'i.(2)

Ya'ni so'zingni bo'sh qo'yma, tilingni tiyib tur, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi, deya ta'kidlaydi.

Alloma, shuningdek, tilni bo'sh qo'yish aqlli insonning ishi emasligiga ham alohida urg'u beradi:

Xiradliqmu(v)bo'lur tili bo'sh kishi, Tilim boshni yedi bu til so'z bushi.

Mazkur misralarda tili bo'sh, so'zlari kishilarning qalbiga ozor yetkazuvchi kishining aqli yetuk bo'lmasligi, kimningki tili va so'zi bo'sh bo'lsa, boshini yeyishi xususidagi fikrlari ayni haqiqat. Til vositasida kishilarning qalbiga yetkazilgan yaraning bitmasligini alloma quyidagi tarzda bayon etadi: *Hukturma erni tiling bil bu til, Boshog tursa butmas butar o'q boshi.* Ya'ni kishini o'chakishtirma, uning tilini bil, agarda til inson qalbini yaralasa, uning jarohati bitmaydi, deya izohlash mumkin bu misralarni. Ahmad Yugnakiy ayni o'rinda tilingni tiy, so'zingni qisqa qil, tiling tiyilsa, o'zing ham saqlanasan, deya tilni tiyish yo'llarini ko'rsatadi.

Xususan:

Kudazgil tilingni, kel oz qil so'zung,

Kudazilsa bu til kudazlur o'zung.

Adib "Bilimning foydasi va johillikning zararlari haqida" deb nomlangan bobda bilim, bilimlilik, bilimlilikning qiymati, ilmiy fikrlash, 247chida247 247chid va donolik, bilimsizlikning zararlari haqida o'z fikrlarini bayon etadi. Va zarur o'rinlarda fikrlarini Qur'on oyatlari va hadislar bilan dalillab, insonlarni bilim olishga tashviq etadi.

Yugnakiy asarini shakllantirish jarayonida o'zi yashagan jamiyatning an'ana va dunyoqarashidan chiqmagan holda e'tiqodni mustahkamlash, diniy bilimlarini boyitish borasida quyidagi misralarni hadislar asosiga qurdi:

Bilim bilan olim yuqoriga ko'tarildi,

Bilimsizlik kishini quyi cho'ktirdi.

Bilim bil, erinma, bilki, ul haq rasul

"Bilim Chinda bo'lsa ham, siz axtaring".

Adib bu o'rinda jaholatning insonni tubanlashtirishini, 248chida248 uni yuksaklarga ko'tarishini anglatar ekan, bilimning inson hayotidagi ahamiyatini chuqur ochib beradi. Demakki, inson yuksalishni istasa, bilim olishi lozimligini uqtiradi. Shuningdek, to'rtlikning davomida inson o'zini yuksaklarga olib chiqqan bilimni egallashga harakat qilishi lozimligini va buning dinda ham muhim vazifalardan biri ekanligini alohida qayd etadi. Adib Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning "Ilm Chinda (Xitoyda) bo'lsa ham, uni izlang!" degan hadislarini keltirish bilan inson hayotida nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy ilmlar ham alohida o'rin egallashini, kishi hayotida zarur bo'lgan boshqa ilmlarni Chinda bo'lsa ham, axtarib o'rganishi lozim ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra, muqaddima bo'lib, beshinchi hamda o'n to'rtinchi boblarda asosiy g'oyalar ifoda etiladi. Asarda til odobi, sir saqlash, 248chida248 foydasi, saxiylik, kamtarlik, shukronalik, ta'zim-tavoze, insonparvarlik, kasb-korga mehr qo'yish, rizo va qanoat, halollik haqida pand-nasihatlar berilgan. Muallif asarda johillik, dilozorlik, achchiqzabonlik, ochko'zlik, noshukurlik, takabburlik, mol-dunyoga xirs qo'yishni qattiq qoralagan. Mutafakkir "Hibat ul-haqoyiq"ning birinchi bobidayoq ilm manfaati, ilmsizlik va jaholatning zarari haqida fikr bildiradi. Ilmli va ilmsiz kishini bir-biri bilan taqqoslash asosida ilm-ma'rifatning afzalligi, uning inson uchun qay darajada foydali ekanligini ochib berar ekan, bilimli insonni qimmatbaho dinorga, bilimsiz kishini esa qimmatsiz ilikka o'xshatib, er kishining ko'rki aql, deya ta'kidlaydi. Ilmli inson o'z ilmi bilan mag'rur bo'lib, nomi o'chmagani holda, ilmsiz kishi garchi tirik bo'lsada, nomi o'lik ekanligini e'tirof etadi. Alloma bilim egallash kishini yuksaklarga ko'tarsa, ilmsizlik tubanlikka tomon yetaklashiga alohida urg'u beradi.

Adib bilimli kishilarni mukammal kishilar sanaydi. Chunki bilimlilik barcha yaxshi ishlar va ezguliklarning omili bo'lsa, bilimsizlik razolatga yo'l ochadi.

Asarida boshqa ta'limiy-axloqiy masalalardagi kabi insonning barkamolligidan dalolat beruvchi ikkinchi belgi – uning xushxulqliligidir,

degan g'oya ilgari suriladi. Shuning uchun adib asarda axloqlilikning asosiy mezonlari bo'lgan ijobiy xislatlar va inson qiyofasida ularning qay darajada aks etishi yuzasidan fikr yuritadi va mol-dunyoga muhabbat qo'yishning salbiy xislat ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Asarning to'rtinchi bo'limi saxovat va baxillik kabi sifatning mohiyati hamda ularning oqibatlarini yoritib berishga yo'naltirilgan. Ahmad Yugnakiy ham boshqa mutafakkirlar kabi saxovatni eng ezgu insoniy xislatlardan biri deb biladi. Saxiylar hamma tomondan ulug'lanishi, faqat yaxshi va nuqsonsiz nom qoldirishi mumkinligini ta'kidlar ekan, "Qo'llar 249chida in'om beruvchisi baxtli (qo'l)dir, o'zi olib, boshqalarga bermagan (qo'l) qo'llarning qutsizidir", deydi. Baxillik xislatini esa alloma davolab bo'lmaydigan kasallikka qiyoslaydi. Ahmad Yugnakiy saxiylikni kamolot belgisi deb tushunadi. Saxiylik xislatiga nisbatan baxillik va ochko'zlik kabi illatlar qarama-qarshi qo'yiladi, boylik to'plab yemay-ichmay, boshqalarga bermay yashagan kishining mol-dunyosi oxiri do'stga emas, dushmanga buyurishi xususidagi fikrlarni

quyidagicha

yoritadi:

*Taturmas oshin — datuz do'stina,
O'lur qolur axir eyur dushmani.*

Xulosa. Ahmad Yugnakiy tomonidan asoslangan barkamol insonni shakllantirish tizimi o'zida quyidagilarni aks ettiradi: yuksak darajada nazariy va amaliy bilimlarni egallash, til va so'z odobiga ega bo'lish, shuningdek, o'zida halollik, rostgo'ylik, saxiylik, [kamtarlik](#), qanoatlilik, samimiylik kabi xislatlarni namoyon eta olish, vafodor do'st bo'lish. Allomaning nuqtayi nazariga ko'ra o'zgalar sirini saqlay olish, kamgap bo'lish hamda har bir so'zni o'z o'rnida va lozim topilgandagina so'zlash, yuqori mansab yoki mavqega ega bo'lganda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsata olish kishining obro'siga obro' qo'shuvchi sifatlar bo'libgina qolmay, ayni vaqtda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy holatlarning oldini oladi.

Insonda baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, zolimlik, jaholat, tanballik, shoshqaloqlik, [bilimsizlik](#),

sabrsizlik, ko‘p gapirish va hokazo kabi xislatlarning mavjudligi esa kishilar o‘rtasida adovat, o‘zaro urush-janjallarning kelib chiqishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilishini Ahmad Yugnakiy yuqorida mazmuni xususida so‘z yuritilgan asarda alohida qayd etib o‘tadi. Ahmad Yugnakiyning ushbu asari o‘ziga xos pedagogik qiymatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur asarda ilgari surilgan g‘oyalar kishilar, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy-axloqiy kamolotga yo‘llaydi, ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatlarni ahillik, saxovat hamda hamjihatlik asosida bartaraf etib, adolat o‘rnatishga chorlaydi.(3)

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ahmad Yugnakiy o‘z davri muhitini, dunyoqarashini va e’tiqodining hayot va milliy an’analarga uyg‘un ekanligini, inson hayotida mo‘tadillik sari intilishi zarur ekanligini va kishining yuksalishi, sevilishi, hurmati bilimga bog‘liq ekanligini, bilimsizlik natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan zararli odatlarni alohida ta’kidlab o‘tadi. Bundan bugungi kun insonlari, ayniqsa, yoshlarimiz tegishli xulosalar chiqargan holda, dunyoviy va diniy bilimlarni, milliy qadriyatlarimizni egallashga, jamiyatga, xalqiga, vataniga manfaat keltirishga intilishlari zarurligi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Ertürk, Edib Ahmet B. Mahmud Yükneci’nin Atabetü’l Hakayık adlı eserinin sosyal bilgiler öğretim programında yer alan değerler açısından incelenmesi (Master’s thesis, Adnan Menderes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü), 2017.

2. R.R.Arat. Atabetü-l Hakayık (Edib Ahmed b. Mahmud Yükneci), Baskı, –Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1992.

3. Mahmudov Q.Ahmad Yugnakiyning ”Hibat ul-haqoyiq” asari haqida. –Toshkent: Fan, 1972.

5. Рахмонов, А. К. (2025). Абулфатх Бурхониддин Носир Мутарризий–Ўрта Аср Шарқ Илмий Меросининг Ёрқин Намоёндаси. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.

4. Musayev Islomxon Xodi o'g'li. Islomda ayol huquqlari: talqin va tavsir. Gender tenglik va ijtimoiy taraqqiyot. 2025/11. 65-67.
5. Tursunaliyeva, M. (2025). Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarida hamd matnidagi so'zlar jilvasi. «acta nuuz», 1(1.7), 310-312.
6. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. *Научные весты*, (10), 46-50.
7. Ibragimova, D. I. (2023). O'zbek adabiyotida tarixiy nasr. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(19), 213–216.
8. Turdiyeva, Y. (2022). “Jaziramadagi odamlar” romanida qahramonlar portretining badiiy tahlili. *oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi farg'ona davlat universiteti*, 488.
9. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
10. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.